

## **FERMER XO‘JALIKLARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLARNI HISOBLASH YO‘LLARI**

**Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Buxgalteriya hisobi va audit”  
kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

**Sultonova Malika Otabek qizi**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Buxgalteriya hisobi va audit”  
kafedrası Audit mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada fermer xo‘jaliklarida moliyaviy natijalarga ta’sir etuvchi omillar ta’sirini hisoblash yo‘llari ilmiy-uslubiy jihatdan bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** fermer xo‘jaligi, tushum, daromad, xarajat, moliyaviy natija, omil, ekin maydoni, xodimlar soni, ko‘rsatkich.

### **WAYS OF CALCULATING FACTORS AFFECTING THE FINANCIAL RESULTS OF FARMS**

Jumayeva Gulrux Jurakulovna

Karshi Engineering-Economics Institute “Department of Accounting and  
Auditing” candidate of economic sciences, Associate Professor.

**Sultonova Malika Otabek’s daughter**

Karshi Engineering-Economics Institute “Department of Accounting and  
Auditing” master’s degree, 2nd stage of Auditing

## ABSTRACT

This article describes how to calculate the influence of factors affecting financial results in farms, scientifically and methodically.

**Keywords:** farm, revenue, income, cost, financial result, coefficient, cultivated area, number of employees, indicator.

Bugungi kunda dunyo xo‘jaligida kuzatilayotgan keskin iqlim o‘zgarishlari va texnogen hodisalarning kundan-kunga oshib borishi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rni va ahamiyatini yanada oshishiga olib kelmoqda. Chunki, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida strategik ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda qishloq joylarida istiqomat qiladigan aholi uchun turmush sharoitini yaxshilashni ta‘minlaydigan daromadlar manbai va tabiiy resurslarni boshqarishning asosi bo‘lib, qishloq aholisi turmush tarzi sifat ko‘rsatkichlarini oshirishda muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bunda tarmoqda fermer xo‘jaliklarini tashkil etilishi qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik va xususiy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali aholi turmush darajasini oshirish imkonini beradi. Amaldagi huquqiy asoslarga ko‘ra, “Fermer xo‘jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir”<sup>31</sup>. Mehnatni tashkil etishning mazkur shakli asosida milliy iqtisodiyotda aholini iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan bandligini ta‘minlashga erishilmoqda. Endigi ustuvor vazifalardan biri tashkil topgan fermer xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligini oshirishda mavjud ichki imkoniyatlarni to‘g‘ri aniqlash va ularni ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat. Mazkur vazifaning yechimini ta‘minlashda moliyaviy natijalarga ta‘sir etuvchi omillarni to‘g‘ri tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, birgina qishloq xo‘jaligining g‘allachilik yo‘nalishida ko‘rilayotgan

<sup>31</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri), O‘zR 26.08.2004 y. 662-II-son, 3-modda.

moliyaviy natijalarga bir necha omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aynan, ushbu omillar ta'sirini quyidagi bog'liqlikda ifodalash va hisob-kitob qilish mumkin:

$$Q = X \cdot Q_m \cdot M_x \cdot X_x$$

Bunda: Q- (g'alla) sotilgan mahsulot;

X-fermer xo'jaligida g'alla yetishtirish bilan band bo'lgan xodimlar soni;

$Q_m$ -g'allaga mo'ljallangan yerni samaradorligi ya'ni, hosildorligi, so'm miqdorida;

$M_x$ -g'alla yetishtirishga ketgan xarajatlarning ekin maydoni bilan ta'minlanganligi;

$X_x$ - bir xodimga to'g'ri keladigan xarajatlar miqdori.

Ushbu omillarning moliyaviy natija o'zgarishiga ( $\Delta Q$ ) ta'sirini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlashni tavsiya qilamiz. Buning uchun natijaning farqini quyidagi formula yordamida aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

$$\Delta Q = Q^x - Q^p = (X^x \cdot Q_m^x \cdot M_x^x \cdot X_x^x) - (X^p \cdot Q_m^p \cdot M_x^p \cdot X_x^p)$$

Bunda X – kelgusi ko'rsatkichning haqiqatdagi miqdorini ifodalaydi;

P – ko'rsatkichning rejadagi yoki o'tgan davrdagi miqdorini ifodalaydi.

Natija, ya'ni mahsulot (g'alla)ni sotilgan mahsulotning o'zgarishiga birinchi omilning, ya'ni fermer xo'jaliklarida g'alla yetishtirish bilan band bo'lgan xodimlar sonining o'zgarishini ( $\Delta Q_x$ ) aniqlash uchun natijani shu birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblanib olinadigan ( $X^x \cdot Q_m^p \cdot M_x^p \cdot X_x^p$ ) va undan natijaning rejadagi miqdori ayiriladi ( $X^x \cdot Q_m^p \cdot M_x^p \cdot X_x^p$ ).

Buning uchun quyidagi hisob-kitoblarni tavsiya qilamiz:

$$1. \Delta Q_x = (X^x \cdot Q_m^p \cdot M_x^p \cdot X_x^p) - (X^p \cdot Q_m^p \cdot M_x^p \cdot X_x^p)$$

$$2. \Delta Q_{qm} = (X^x \cdot Q_m^x \cdot M_x^p \cdot X_x^p) - (X^p \cdot Q_m^p \cdot M_x^p \cdot X_x^p)$$

$$3. \Delta Q_{mx} = (X^x \cdot Q_m^x \cdot M_x^x \cdot X_x^p) - (X^x \cdot Q_m^x \cdot M_x^p \cdot X_x^p)$$

$$4. \Delta Q_{xx} = (X^x \cdot Q_m^x \cdot M_x^x \cdot X_x^p) - (X^x \cdot Q_m^x \cdot M_x^p \cdot X_x^p)$$

$$5. \Delta Q = XQ_x \pm \Delta Q_{qm} \pm \Delta Q_{mx} \pm \Delta Q_{xx}$$

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida band bo‘lgan fermer xo‘jaliklarining moliyaviy natijalarini aniqlash va tahlil qilishda ushbu hisob-kitoblardan foydalanish iqtisodiy tahlilning sifat va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda tarmoqda omilli tahlildan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri), O‘zR 26.08.2004 y. 662-II-son, 3-modda.
2. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Mehnat, 2004.
3. Raximov M.Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. 2015.-316 b.